ISSN: 2181-1741 (print)
ISNN: 2181-1725 (online)
2024 / № 4

FILOLOGIK TADQIQOTLAR:
TIL
ADABIYOT
TA'LIM



Philological research:
LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

Филологические исследования:
ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

pholologicalresearch.uz

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2024/ № 4

Termiz – 2024

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 26.04.2024
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV, iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:

Bekpo‘lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)
O‘ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Normat Yo‘ldoshev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Asqar Eshmo‘minov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Shoira Amonturdiyeva, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Nargis Kurbanazarova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Zaynura Qodirova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 26.04.2024
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)

Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)

Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)

Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)

Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)

Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)

Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)

Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Нормат Юлдашев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)

Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Бобоназар Муртазаев, ф.ф.н., доцент (Узбекистан)

Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)

Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)

Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Ахад Шукуров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Шоира Амонтурдиева, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Наргис Курбаназарова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Зайнура Кадирова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 26.04.2024
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD (Uzbekistan)
Shoira Amonturdieva, PhD (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Zaynura Kadirova, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

YERJANOVA SAULE BAYMURZAYEVNA,
TO‘YCHIYEVA ZULEYXA HAMROQO‘LOVNA
Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk”
asarida so‘zlarni ko‘chma ma’noda qo‘llash 7

BERDIYEV XUSAN XOLNAZAROVICH
«Devon-u lug‘otit turk»dagi she’rlarda
hojib va radif san’atlari 13

УМУРҚУЛОВ ЗАФАР БЕКПЎЛАТОВИЧ
Қиёслаш инсон тафаккур тарзининг маҳсули 16

ESHBOYEV QAHRAMON BAKIR O‘G‘LI
So‘zlararo darajalanish o‘quv lug‘atida so‘zlarga izoh berish 20

NAVRUZOVA MUYASSAR GAYBULLAYEVNA
Kasallik nomlarining onomasiologik, semantik ifodasi 24

BOZOROV HAMID XO‘SHMURODOVICH
Antroponimlarning lingvomadaniy xususiyatlari
(O‘zbek xalq ertaklarida mavjud antroponimlar misolida) 28

ДЖАББАРОВА ШОИРА БАЛТАЕВНА
Медиа тилида муқобилсиз лексика таснифлари: назарий ёндашув 33

KULTAYEVA FAZILAT BAXTIYAROVNA
Ergonimlarning morfologik derivatsiyasi xususida 36

HAYDAROVA KAMOLA DAVRANOVNA
O‘zbek, rus va ingliz tillarida meva nomlarining qiyosiy-chog‘ishtirma tahlili 39

TERMIROVA KAMOLA
Ziravor atamalar va ularning lug‘atlarda ifodalanishi 43

TURDIMURODOV SIROJIDIN ESHQOBILOVICH,
JABBOROVA SEVARA BAXTIYOR QIZI
Badiiy matnda evfemik birliklar tahlili 50

SOATOVA YULDUZ
Bobur she’riyatida ayol qaddi-qomatini ifoda etuvchi lingvistik vositalar 53

ТОЛИЕВА ШОИРА ИЛХОМОВНА
Лингвистик экспертиза методларининг тамойиллари 57

AVRIDDINOV JOBIR MUSULMON O‘G‘LI
Sharq olimlarning «Zufongo‘yo va Jahonpo‘yo» lug‘atida ilmiy qarashlari 59

ДАВЛЯТОВА ЭЛЬВИРА МУРАДОВНА
Парадигматические свойства иноязычных лексических единиц
в русском и узбекском языках (на материале интернет медиа) 61

МУНДАРИЖА

ЗАРИПОВА МАТЛУБА КУЛФИДИНОВНА
Концепт «богатство» во фразеологизмах
и паремиях узбекского и русского языков 64

РАДЖАПОВА НАТАЛЬЯ БАЗАРОВНА
Эволюция лексических единиц обозначающих мужчин и женщин 67

QULMAMATOVA MUATTAR OTABEK QIZI
Ingliz va o‘zbek maqollarida “boylik” konseptining chog‘ishtirma tadqiqi 70

FARZANA NABI,
ABDULLA XUDAYQULOV ESHQUVVATOVICH
Official documents in dari language, its translation challenges 73

ЖАББАРОВА НАРГИЗА ИСЛАМЖАНОВНА,
РАДЖАПОВА НАТАЛЬЯ БАЗАРОВНА
Влияние гендерной лексики на сознание и поведение людей 76

ADABIYOTSHUNOSLIK

ARSLONOV ABDIMUROD KARAMATOVICH
“Qissasi Rabg‘uziy”da xalq og‘zaki ijodi syujetlari va motivlari 80

КАЗАКОВА ГУЛАСАЛ КУРАЛОВНА
Эссе жанрида шахс концепциясининг бадиий-публицистик талқини 82

LOLAYEV SHUXRAT ALIQOBIL O‘G‘LI
Turkistonda “Usuli jadid” maktablarining shakllanishi va ahamiyati 84

USMONOVA MOHIDIL LAZIZ QIZI
Ravnaq g‘azallari tabdilidagi matniy tafovutlar 87

TA’LIM

ABDUQAYUMOVA NARGIZA RAIMOVNA
Bo‘lajak rus-tili o‘qituvchilarni innovatsion pedagogik faoliyatga
tayyorlash jarayonlarini takomillashtirish metodikasi 90

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2024; 4
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

BADIIY MATNDA EVFEMIK BIRLIKLAR TAHLILI

Turdimurodov Sirojidin Eshqobilovich,
Termiz davlat universiteti o'zbek tilshunosligi kafedrasi katta o'qituvchsi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Jabborova Sevara Baxtiyor qizi,
Termiz davlat universiteti
Lingvistika: o'zbek tili yo'nalishi magistranti

Jamiyatda har bir xalqning asrlar osha saqlanib, sayqallanib kelayotgan o'z milliy urf-odatlari va an'analari, milliy qadriyatlari bor. Bu milliy urf-odatlar milliy mohiyati va mazmuni, yangilanish va tarqalish sur'atlari, o'zining kelajak avlodlarga o'tish yo'llari bilan xarakterlanadi. O'zbek xalqining milliy urf-odatlaridan biri hisoblanadigan nutqiy madaniyat vositasi sifatidagi evfemik birliklar xalqimiz va jamiyatimiz hayotida muhim o'rin tutadi.

Badiiy matnlarda tasvir ifodasi sifatida evfemik birliklar o'zining zamirida xalqning milliy madaniyatini aks ettirib, ixcham va sodda, qisqa va lo'nda mazmunli mantiqiy umumlashmalarning ro'yobga chiqishiga xizmat qiladi.

Evfemizmlar o'zida xalq tafakkuri, ongi va dunyoqarashi, xulq-atvori va odobi ifodasini aks ettirishi bilan ajralib turadi. Chunki ular orqali inson va shaxs obrazi namoyon bo'lishi bilan birgalikda tilning ushbu shaxs va inson fe'l-atvoriga ta'sir o'tkazishi, xalq ruhiyatiga ta'siri kuzatiladi.

Muloqotlar madaniyati darajalarini va nutqiy madaniyatng saviyasini ro'yobga chiqaruvchi eng muhim lisoniy vositalardan biri evfemik birliklar deb aytishimiz mumkin. Aslida nutqda qo'pol, yoqimsiz va noo'rin so'zlarni qo'llash o'z navbatida salbiy lingvistik hodisa sifatida qabul qilinadi. Shuning uchun ham qulay kommunikativ muloqotni ta'minlash uchun evfemizmlar qo'llaniladi. Hayotning yoqimsiz hodisalarini yuzaga keltirmaslik, beadab so'z va fikrlarni hamda niyatlarni aytmaslik vositasi hamdir. Evfemizmlar yoqimli so'zlar va iboralar sifatida ham qo'llaniladi. Ularning asosiy vazifasi yoqimsiz haqiqatni yumshatish, noqulay yarim haqiqatga nisbatan tasalli berishdan iboratdir. Bugungi kunda o'zbek tilshunosligida evfemizmlar intensiv tarzda o'rganilib, yangi-yangi tadqiqotlar amalga oshirilaoytganligini ta'kidlashimiz lozim bo'ladi. Insonlar o'rtasida axloqiy-madaniy jihatdan qo'llanishi o'ng'aysiz, noqulay bo'lgan so'zlar o'rnida ishlatiladigan evfemizmlarning til va nutqda, shuningdek, badiiy matnlarda qo'llanishini o'rganish, tadqiqottalab ishlardan deb aytish mumkin. Buni ilmiy tadqiqotlarning mahsuli bo'lgan natijalar hamda ma'lumotlar orqali yanada yaqqolroq ko'rish mumkin. Bu sohada o'zbek tilshunosligida) N.Ismatullayev, A.Omonturdiyev, X.B.Qodirova, D.Rustamova, N.G'aybullayeva, G.Qobiljonov hamda S.E.Turdimurodovlar[1]ning ilmiy izlanishlari va tadqiqotlari alohida ahamiyatga egaligini qayd etish lozim.

O'zbek milliy tilshunosligida evfemik leksemalarning keng qo'llanishi o'zbek xalqi va shu millat milliy muomala madaniyatining muhim belgisi hisoblanadi. Metaforik evfemik obraz ko'p ma'nolik mohiyatiga ham ega. Tilshunos olima X.Qodirova – ***buzilgan*** so'zining evfemik qatlamini ham shu asosda tahlil qiladi: – Abdulla Qodiriy ***buzilgan*** so'zi orqali turli evfemik ma'nolarni ifodalaydi, ularning har biri yagona tushuncha doirasida birlashadi. Ya'ni, u nuqsonli, kemtik, biror narsa-hodisaning nosozligiga ishora sifatida qo'llaniladi. Odatda qiz bolaga nisbatan axloyiy nuqsonini anglatuvchi ifodalardan ***buzuq*** evfemik ma'noli birligi sharoitga nisbatan ham qo'llanilganining guvohi bo'lishimiz mumkin: ***Buzilgan*** (bokira emas): ***Qizi tushkur jajmondekkina ekan. Hayfki, buzilg'anda…***("Kalvak maxzumning xotira daftaridan"). ***Buzuq sharoit*** (siyosiy notinch tuzum): ***Chunki daholarni yetishturguvchi bosh***

[1] Исматуллаев Н. Эвфемизмы в современном узбекском языке: Автореф.дисс...канд.филолог.наук. – Тошкент, 1963; Омонтурдиев А.Ж. Эвфемик воситларнинг функционал хусусиятлари: Филол.фан. номзоди дисс. – Тошкент, 1997; Профессионал нутқ эвфемикаси (чорвадорлар нутқи мисолида): Филол.фанлари докт.дисс... – Тошкент, 2009; Қодирова Х.Б. Абдулла Қодирийнинг эвфемизм ва дисфемизмдан фойдаланиш маҳорати: Филол. фанлари номзоди дисс... – Тошкент, 2012; Турдимуродов С.Э. – Ўзбек тилининг изоҳли луғатларида эвфемик маънолар талқини: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори. (PhD) дисс-си. – Термиз, 2022. – Б. 139.

omil buzuq sharoit edi (“26-yilda kuldurguchilarimiz. Jiddiy”)[1]. O‘zbek tilshunosligida adib – “Abdulla Qodiriyning evfemik va disfemik vositalardan foydalanish mahorati”ga bag‘ishlangan nomzodlik dissertatsiyasida tadqiqotchi X.Qodirova metaforik evfemalar badiiy matnda ancha unumli qo‘llanganini ta‘kidlaydi: –Evfemizatsiya jarayonida ko‘chimning ayni turi ko‘p o‘rinlarda xizmat qiladi. Adibning –bo‘yin‖ bilan bog‘liq evfemik birliklari ma‘lum ma‘noda nisbiy ekanligi anglashiladi. Jumladan, ***bo‘yin egmoq, bo‘yni yo‘g‘on*** kabi ifodalarida kishining jismoniy holati o‘z o‘rnida ma‘naviy holatiga *nisbatlanadi:* - **bo‘yin egmoq** *(taslim bo‘lmoq):* Manga o‘xshash bo‘ynini egkan xumsalaring juda ko‘p ekan (“Toshpo‘lat tajang nima deydi”).

- ***bo‘yni yo‘g‘on*** (zo‘ravon): Mahalla-ko‘ylarimizda bitta-bitta bo‘yni yo‘g‘on, bo‘yni g‘avsar borligini har bir kimsa bilar va ularning mahalla ijtimoiyotiga o‘ynayturg‘an rollari katta-kichikka belgulikdir (Mushtum ta‘rifida)[2]. Adib ***bo‘yni yo‘g‘on*** ifodasini jamiyatdagi ma‘lum bir sotsial tipga nisbatan qo‘llaydi va ularni tizumga, taraqqiyotga, kishilarning manfaatlariga zid harakatlar qiluvchi toifa sifatida ajratadi. ***Bo‘yni yo‘g‘on*** evfemik vositasining tadqiqotchi o‘zi ta‘rif bergan lug‘at-ko‘rsatkichida –zo‘ravon‖ ma‘nosida ekanligini ta‘kidlaydi. Bu evfemik vositaning ushbu ma‘nosi to‘g‘ri ma‘nodagi yo‘g‘on bo‘yinli birikmasi ma‘nosidan kelib chiqqaniga ishora sezilib turibdi. Yozuvchi Pirimqul Qodirovning –”Yulduzli tunlar” tarixiy romanidan olingan parcha fikrimizning dalili bo‘la oladi. –Tohir Robiyaning Andijon qo‘rg‘onida birorta *bo‘yni yo‘g‘on* tuzog‘iga ilinib qolishi mumkinligini o‘yladi-yu: - Yo‘q! – dedi. – Meni desang qo‘rg‘onga borma! Robiya Tohirning baxmalday mayin mo‘ylovi tagida xiyol titrab turgan labiga va iztirob bilan chaqnayotgan qo‘ng‘ir ko‘zlariga tikildi”[3].

Yozuvchi *zo‘rovon, chapani, mushtumzo‘r* kabi qo‘pol va dag‘al so‘zlarining o‘rniga ustalik bilan nutq madaniyatining yuqori darajasidagi ko‘rinishida *bo‘yni yo‘g‘on* lingvomadaniy birligi sanalgan evfemizmni ishlatgan. *Bo‘yni yo‘g‘on* ifodasi to‘g‘ri ma‘noda odamning tanasi bilan boshini va boshni ko‘tarib turuvchi qismning fiziologik me‘yordan ortiq hajman kattalashib ketganini bildiradi. Bunday bo‘yinga ega bo‘lgan kishining boshini erkin harakatga keltirishi tanani burmasdan qarashi qiyinligi sababli qaysardek, itoatsizdek tuyulishi hollari obyektiv voqelikdir. Ana shu holatga ishora qilish asosida paydo bo‘lgan *bo‘yni yo‘g‘on* ifodasi itoatsiz, odatda boshqalarga bo‘ysunmay, teskari harakat qiluvchi shunday shaxs va u mansub sotsial toifani ifodalashda metaforik evfemizm sifatida namoyon bo‘ladi”[4]. *Bo‘yni yo‘g‘on* evfemizmiga – O‘zbek tilining izohli lug‘atida quyidagicha izoh berilgan: –*Bo‘yni yo‘g‘on* ko‘chma. Zo‘ravon, mushtumzo‘r; chapani odam. (***O‘g‘lingizning) Boshiga bir musht urib, bir burda qattiq non beradigan bir bo‘yni yo‘g‘onga tegmasam, men ham yurgan ekanman.*** (A.Qahhor, Qo‘shchinor chiroqlari)[5].

Evfemizmlarning mavzuviy tasniflarining xilma-xilligini o‘rganib, badiiy matnlarda qo‘llanilgan quyidagi evfemizmlarning mavzuviy guruhlarini uchratdik. Bunda asosan: 1. ***O‘lim bilan bog‘liq evfemizmlar*****:** vafot etmoq, ko‘z yummoq, jon bermoq, judo bo‘lmoq, ayrilmiq, kuni bitmoq, nafasi uzilmoq, nobud bo‘lmoq, marhum(a) bo‘lmoq, olamdan o‘tmoq, uzilmoq, tinchimoq, chirog‘i o‘chmoq, halok bo‘lmoq, oyoq uzatmoq va b; 2. ***Diniy mavzu bilan bog‘liq evfemizmlar:*** qabr, qabriston, mozorot, sog‘onalar, yettilik, yigirmalik, qirqi, yili. 3. ***Kasallik bilan bog‘liq evfemizmlar***: betob, bemor, dardli, bedavo, tobi yo‘q, tobi qochmoq, xasta. 4. ***Insonning ayrim uyat tana a‘zolari va kiyim-kechak nomlari bilan bog‘liq evfemizmlar:*** avrat, avratpo‘sh, adoq, ket, ort, orqa, dumba, yelin, ko‘krak, ko‘ks, siyna, ko‘krakband, siynaband, qo‘shqalpoq. 5. ***Nikoh bilan bog‘liq evfemizmlar:*** turmush qurmoq, ayrilmoq, ayrilib ketmoq, nikohi buzilmoq, oila rishtasi uzilmoq, orani ochiq qilmoq, pattasini berib yubormoq, taloq qilmoq, uch taloq, xohlamaslik, hayoti buzilmoq, turmush hayoti buzilmoq (izdan chiqmoq), beva, yolg‘iz, boshi ochiq, tul. 6. ***Ayollarning uzrli holatlari bilan bog‘liq evfemizmlar:*** bo‘g‘oz so‘zi o‘rnida; ikkiqat, og‘ir oyoq, yukli, xomilador. 7. ***Insonning jismoniy nuqsonlarini anglatuvchi evfemizmlar:*** **ko‘r** so‘zi o‘rnida: a‘mo, basir, so‘qir, g‘ilay, ko‘zi ojiz; **kar** so‘zi o‘rnida: botil, garang, qulog‘i og‘ir; **kal** so‘zi o‘rnida: sochsiz, sochi siyrak, taqirbosh, siyqabosh; **farzandsiz(lik)** so‘zi o‘rnida: bepusht, pushtsizlik, pushtsiz, tumsa; **jinni, axmoq** so‘zlari o‘rnida: aqli zaif, beaql, aqli qusur, nosog‘lom, tomi ketgan, to‘qson to‘qqiz, ruhiy kasal, ruhiy kamchilikli; 8. ***Badxulq shaxsni va ular bilan bog‘liq o‘rin-joyni anglatuvchi evfemizmlar:*** bejilov, zinokor, suyagi yo‘q, shilqim, suyuq, suyuq oyoq, yengil oyoq, badanfurush, tanfurush, behayo, buzuq, jonona, yuviqsiz; 9. ***Qarilik tushunchasi bilan bog‘liq evfemizmlar:*** keksa, nuroniy,

[1] Қодирова Х.Б. Абдулла Қодирийнинг эвфемизм ва дисфемизмдан фойдаланиш маҳорати: Фил.фан.номзоди... дисс-си. – Тошкент, 2012. – В. 13.

[2] Қодирова Х.Б. Абдулла Қодирийнинг эвфемизм ва дисфемизмдан фойдаланиш маҳорати. Фил.фан.номзоди... дисс-си. – Тошкент, 2012. – В. 74.

[3] Пиримқул Қодиров. – Юлдузли тунлар‖ романи.www.ziyouz.com kutubxonasi. 2008. – Б. 304.

[4] Турдимуродов С.Э. Ўзбек тилининг изоҳли луғатларида эвфемик маънолар талқини: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори. (PhD) дисс-си. – Термиз, 2022. – Б. 57-58.

[5] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. биринчи жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – В. 403.

nafaqaxo‘r, onaxon, otaxon; Evfemizmlar badiiy matnlarda faol qo‘llaniladigan – ma‘nodoshlik qatorlarini, ko‘p ma‘nolilikni, bo‘yoqdor so‘zlar qatorini tinimsiz boyitishga bevosita xizmat qilishi bilan ahamiyatli. Bunday evfemizmlar badiiy asarlar matnidagi muloqot jarayoni nozik ma‘nolarini anglashning ayrim ma‘no farqlarini vujudga keltiradi. Ushbu evfemizmlarning mazmun-mohiyatini idrok etish shaxsning qaysi mental muhitga mansubligi, fikriy faoliyatiga ham bog‘liqligini badiiy matndan sezish mumkin. To‘g‘ridan to‘g‘ri *kasal, kasal bo‘ldi* deb aytishning o‘rniga *“betob, bemor, bundoq bo‘lib qolmoq, dard tortmoq, mazasi yo‘q, mazasi qochmoq, notob, nosog‘, og‘rib qolmoq, sog‘ligi yo‘q, sog‘ligi yomon, sog‘ligi yaxshi emas, tobi yo‘q, tobi yomonlashib qolmoq, tumovlamoq, xasta, shamollab qolmoq”*[1] ***yoki*** *– U yomon, o‘zini yomon his qilmoqda –* ***kasal*** so‘zining o‘rniga; *–U juda yomon – u umidsiz.* ***Kasal*** *o‘rniga tuzalishga umid yo‘q* kabi evfemizmlar qo‘llaniladi. Uzoq yillar mobaynida so‘z insonlararo muloqotning kuchli va qudratli vositasi bo‘lib kelganligini mana shunday badiiy matnlarda qo‘llanilgan evfemik birliklarda ko‘rishimiz mumkin. Bu esa badiiy matnlarni tahlil qilishda evfemik birliklarning ham ahamiyati katta ekanligidan dalolat beradi.

Tilshunos D.Rustamova “Metaforik evfemizatsiyaning lingvokulturologik va sotsiopragmatik aspektlari” nomli filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori avtoreferatida “Tasvirlovchi metafora zamirida ma‘lum darajada nomlash/atash intentsiyasi ham yotadi. Masalan, ***Avvalambor, bu betamiz odamning, xudo miya o‘rniga suyaksiz til, ilm o‘rniga gap bergan*** *bulbuligo‘yo****ning balandparvoz gaplari, aravani quruq olib qochishlari g‘ashiga tegdi*** (O.Yoqubov) misolida *bulbuligo‘yo* metaforik evfemizmi o‘zbek tilidagi mahmadona, laqqi ifodalari o‘rniga qo‘llangan tavsiflovchi atamadir. Biroq mahmadona, laqqi so‘zlari tavsiflovchi va atochi ifodalar bo‘lganligi kabi ularning almashtiruvchilari bo‘lgan *булбулигўё* ifodasi ham avvalo, tasvirlash, qolaversa, nomlash vazifasini bajarmoqda”[2], - shaklidagi tahlilni taqdim etgan. “Bulbuligo‘yo” (**f.–***s’zlovchi, notiq) 1. bulbul kabi so‘zlovchi. 2. Haddan tashqari ko‘p gapiruvchi; vaysaqi; maddoh.* **A’zamning bulbuligo‘yoligi suhbatdoshimga kutganidan ortiq ozuqa berdi, shekilli, u formadagi hamrohiga: – Bu laqqaga o‘xshaydi-ku! – deb, so‘l ko’zini qisib qo‘ydi** *(Shuhrat, Jannat qidirganlar*) Ushbu keltirilgan misolda bulbuligo‘yo metaforik evfemizmi o‘zbek tilidagi ko‘p gapiruvchi, vaysaqi, mahmadona, laqqi ifodalari o‘rnida qo‘llaniladigan tavsiflovchi atamadir. Biroq ***mahmadona, laqqi*** so‘zlari tavsiflovchi va atovchi ifodalar bo‘lganligi kabi ularning almashtiruvchilari bo‘lgan bulbuligo‘yo ifodasi tasvirlash, qolaversa, nomlash vazifasini ham bajarib kelmoqda[3].

Jamiyatimizda axloqiy qarashlar qanchalik yaxshi va to‘g‘ri bo‘lsa, u rivojlansa, jamiyatning madaniy darajasi qanchalik yuqori saviyada bo‘lsa, unda tilda odobli, nozik ifodalar, yaratilgan evfemizmlar shunchalik ko‘p namoyon bo‘laveradi. Zamonaviy milliy tilimizda qo‘llanadigan evfemizmlar badiiy matnlar, ommaviy axborot vositalari va reklamalar orqali insonlarga ijobiy, madaniy va ruhiy ta’sir qilish uchun qo‘llaniladi. Nutqda evfemizmlarni qo‘llashdan yana bir asosiy maqsad shuki, avvalo bu ehtiyotkorlik chorasi ham sanaladi. Insonlarga salbiy va ruhiy ta‘sir yetkazilmasligi uchun o‘ta ehtiyotkorlik bilan ishlatiladi.

Resume: The article comments on the linguistic analysis of euphemistic units used in artistic texts, their specific features in the speech process, their service in correctly assessing the current speech situation, clarifying the reality in the speech process, and preventing mutual rudeness.

Резюме: В статье дается комментарий к лингвистическому анализу эвфемистических единиц, используемых в художественных текстах, их специфическим особенностям в речевом процессе, их служению в правильной оценке текущей речевой ситуации, уточнении действительности в речевом процессе, предотвращении взаимной грубости.

[1] Омонтурдиев А.Ж. Ўзбек тилининг қисқача эвфемик луғати. – Тошкент: Фан, 2006. – В. 91-92.

[2] Рустамова Д. Метафорик эвфемизациянинг лингвокултурологик ва социопрагматик аспектлари: Филол.фан. бўйича фалсафа доктори автореф. – Тошкент, Фарғона, 2018. – В.50.

[3] Турдимуродов С.Э. Ўзбек тилининг изоҳли луғатларида эвфемик маънолар талқини: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори дисс-си. – Термиз, 2022. – Б 36-37.